

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
СВТ..... 7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЕЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK MIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Hurillaeva Uzulxon</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Махмудбеков Бобурмирзо

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT" TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida)

Xalilov Baxodir Shirinboyevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining Navoiy viloyatidagi faoliyati, u orqali amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari, yoshlar bilan ishlashda yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlari, shuningdek, 2017 yildan keyingi davrda yoshlar siyosatida amalga oshirilgan islohotlar ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, yoshlar, faoliyat, siyosat, muammo.

THE ROLE OF OUT-OF-SCHOOL EDUCATION IN WORKING WITH YOUTH: ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF THE "KAMALOT" ORGANIZATION (on the example of Navoi region)

Khalilov Bakhodir Shirinboyevich

Teacher, Navoi State University of Mining and Technology

Annotation. This article analyzes the formation and developmental stages of the state youth policy in the Republic of Uzbekistan, the activities of the "Kamolot" Youth Social Movement in the Navoi region, the implemented awareness-raising campaigns, challenges in youth engagement, and reforms carried out in youth policy since 2017.

Key words: education, youth, activity, politics, problem.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-08>

Maktabdan tashqari ta'lim – o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi muhim muqobil tizimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 2019-2021 yillardagi normativ hujjatlarda fuqarolik jamiyatining, nodavlat tashkilotlar va jamoat tashkilotlarining bu tizimdagi ishtiroki alohida qayd etilgan¹.

Yoshlar har bir mamlakatning ertangi kuni, istiqboli va taraqqiyotning asosiy lokomotiv omillardan biridir. Shuning uchun ham O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati muhim masalalardan biriga aylangan. Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy madaniy va moddiy qo'llab-quvvatlashni tizimlashtirish, huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida dastlab 1991-yil 20-noyabrda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi². Ushbu qonun 21 moddadan iborat bo'lib, mamlakatda yigirma besh yil davomida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha asosiy hujjatlardan biri bo'lib keldi. Globallashib borayotgan dunyoda yoshlarga oid davlat siyostini ham o'zgartirish va takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi. Shundan kelib chiqqan holda, 2016 yilning 14-sentyabrida 33 moddadan iborat yangi tahrirdagi

¹Educational Research in Universal Sciences. Vol. 2 No. 2 SPECIAL. 2023. P.24-27.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 2-сон, 80-модда.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi¹. Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda 1991-yilda yoshlar Respublika aholisning 33,3 foizini (6 million)² tashkil etgan bo'lsa, 2024- yil holatiga ko'ra 60 foizini yoshlar (14-30 yosh) tashkil etadi. Ta'kidlash kerakki, jahon aholisining qariyb 20 foizi yoshlardan iborat. Demak, O'zbekiston yoshlar salmog'i ko'pchilikni tashkil etadigan mamlakatlardan biridir. Bu esa mamlakat istiqbolini belgilashi bilan birga yoshlar siyosatiga davlat va jamiyat hayotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarashni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillardan turli yoshlar tashkilotlari tashkil etildi. Xususan, 1991-1994 yillarda O'zbekistonda Yoshlar Ittifoqi³, 1996-2000 yillarda "Kamolot" jamg'armasi⁴, 2001-2016 yillarda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati⁵ faoliyat olib bordi. "Kamolot" jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, 12 ta viloyat va tumanlardagi bo'limlari hamda 12 mingga yaqin jamoat markazlari faoliyat olib bordi⁶.

O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" YoIH Navoiy viloyat Kengashi 154000 ga yaqin yoshlarni o'z atrofida birlashtirib, harakatning 8 ta tuman va 2 ta shahar bo'limlari Kengashlarida 498 ta boshlang'ich tashkilot faoliyat olib bordi⁷. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Sh.Norovning ta'kidlashicha, o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasida 2001-2005 yillarda Navoiy viloyatida "Kamolot" YoIH faoliyatida samaradorlik yuqori bo'lib, 2008-yil "Yoshlar yili"da yanada faollashganini kuzatish mumkin⁸.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda 2000-2018 -yillarda 9 yillik ta'lim tizimi amalda bo'ldi. 2018-2019 o'quv yilidan boshlab 11 yillik majburiy umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'tildi. 2000-2017- yillarda "Kamolot" YoIH Navoiy viloyatidagi 15-16 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilarining aksariyatini o'z saflariga birlashtirdi.

"Kamolot" YoIH Navoiy viloyat bo'limi Kengashi tomonidan tashkilotga a'zo maktab o'quvchilari ishtirokida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish sohasida "Konstitutsiya- bosh qomusimiz", "Mening shaxsiy fikrim", "Men O'zbekiston fuqarosiman", "Fuqaroning burch va vazifalari", "O'z huquqingizni bilasizmi?", "O'zbekistonda inson huquqiy kafolatlari va erkinliklari", ma'naviy-ma'rifiy sohada "Zamonaviy yoshlar va din", "Biz diniy ekstremizmga qarshimiz" "Ogohlik-muqaddas burch", "Diniy bag'rikenglik nima?", "Islom dini ezgulik ramzi", "Terrorizm va ekstremizmga yuk deymiz", «Biz birgamiz», "Ajdodlar merosi-kelajak poydevori", "O'talar maslahati", "Vatanim ramzlari", "Obod Vatanim", "Kamolot-bizning

¹ Ўзбекистон Республикасининг "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонуни. Халқ сўзи. 2016 йил 15 сентябрь. – Б. 1.

² Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикasiда Ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида"ги Қонунига изоҳлар. Халқ сўзи. 1991 йил 19 ноябрь. – Б. 3.

³ О'МА. М-168 фонд, 1-го'ухат, 10-уиг'ма jild, 2-varaq.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси ёшларининг "Камолот" жамғармаси тўғрисида"ги Фармони. Халқ сўзи. 1996 йил, 18 апрель. – Б. 1.

⁵ Рахимов Ш. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг амалга оширилиши (1991-2018 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2020. – Б. 75-93.

⁶ О'МА. М-13 фонд, 1-го'ухат, 3-уиг'ма jild, 20-varaq.

⁷ Рахмонов Х. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий институтлар фаолияти тарихи (Навоий вилояти мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Бухоро. 2022. – Б. 21.

⁸ Норов Ш. История государственной молодежной политики Узбекистана за годы независимости. (на примере Навоийской области). – Навоий. 2023. – С. 58.

tashkilot”, “Mening vatanim”, **ijtimoiy-iqtisodiy sohada** “Chekmasdan yoshlik zavqini sur”, “O‘zbekiston ramzlari muqaddasdir” “Yoshlar sog‘lom turmush tarzi tarafdori”, “Siz – “Yoshlar ijtimoiy xizmatlari” Markazini bilasizmi?”, “Yoshlarga do‘stona munosabatda bo‘laylik” , “O‘smirlar olami”, “Baxtli kelajak sari” , “Voyaga yetmagan qizlarni oiladagi o‘rni” , “ Bugungi e‘tibor- ertangi taraqqiyot kafili”, yoshlarning iste‘dod va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash sohasida «Zakovat», «Bilimdon», «Yangi avlod», sport va jismoniy tarbiya, yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasida “Sport sog‘lik garovi”, “Sog‘ tanda sog‘lom aql”, “Shunqorlar” harbiy sport musobaqasi, “Kamolot malikasi” kabi mavzularda davra suhbatlari, ko‘rik-tanlovlar takshil etildi¹.

2013-yilning 13-avgust kuni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Navoiy viloyat Kengashi tashabbusi bilan yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ichkilikbozlik va tamaki mahsulotlarini chekishni oldini olish, bu illatlarning yoshlarimiz o‘rtasida chuqur ildiz otib ketishiga qarshi kurashish maqsadida Navoiy shahridagi “Yoshlar markazi” binosida yoz mavsumida oromgohlarga jalb etilmagan maktab o‘quvchilari hamda mahalla yoshlari o‘rtasida “Biz yoshlar ichkilikbozlik va tamaki chekishga qarshimiz” mavzusida insholar va rasmlar tanlovi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda yoshlarimiz hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan bo‘lgan ichkilikbozlik va tamaki chekish illatlariga qarshi o‘z fikrlarini rasmlar va insho orqali namoyon etdilar. Tanlovda Navoiy shahri, Navbahor va Karmana tumanlaridan 60 nafar ishtirokchilar ishtirok etishdi. Insholar tanlovida Navbahor tumanidagi 14 umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchisi Normayeva Mashhura 1-o‘rinni, Karmana tumanidagi 13 umumta‘lim maktabi o‘quvchisi Mardonova Nilufar 2-o‘rinni, Navbahor tumanidagi 13-umumta‘lim maktabi o‘quvchisi Davronova Dilshoda 3-o‘rinni qo‘lga kiritishdi. Rasmlar tanlovida “Kamolot” YoIH qoshidagi “Amaliy san‘at” to‘garagi a‘zosi Aliyeva Mohinur 1-o‘rinni, Komilova Dilafruz 2-o‘rinni, Fayzullayeva Go‘zal 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi².

2015-2016 yillar holatiga ko‘ra “Kamolot” YoIH Navoiy viloyati Kengashi qoshida 1 ta yoshlar markazi hamda tuman va shahar Kengashlari qoshida 3 ta “Yoshlar ijtimoiy xizmatlar markazlari”da 25 ta to‘garaklar faoliyat olib borgan. Ushbu to‘garak va markazlarga 2015-yil davomida 10859 nafar yoshlar jalb qilingan bo‘lsa, 2016-yil davomida 24722 nafar yoshlar jalb qilindi (shundan 15572 nafari (63%) qiz bolalar, 9198 nafar (37%) o‘g‘il bolalar). Hisobot davrida markazlardagi to‘garaklarga jalb qilingan yoshlarning 5121 nafari (21%) kam ta‘minlangan oilalar farzandlari, 347 nafari (2%) nogiron yoshlar, 166 nafari (1%) IIBda profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlar, 137 nafari (1%) boquvchisini yo‘qotgan yoshlar, 2404 nafari (10%) uyushmagan yoshlar va 429 nafari (2%) yosh oila a‘zolarini tashkil etadi.

2016-yil davomida viloyat Kengashi huzuridagi “Yoshlar markaz”lari hamda “Yoshlar ijtimoiy xizmatlari markaz”lari tomonidan 937 marotaba targ‘ibot-tashviqot tadbirlari o‘tkazildi. Ushbu tadbirlarda 75000 nafardan ziyod yoshlar jalb qilindi. Tashkil etilgan loyiha va tadbirlar respublika miqyosida 186 marotaba, hududiy miqyosda 318 marotaba, mahalliy miqyosda 125 marotaba televideniye, radio, matbuot nashrlari hamda internet saytlarida doimiy ravishda yoritib borilgan.

¹ “Kamolot” ЁИХ Навоий вилоят бўлими жорий архиви.

² “Kamolot” ёшлар ижтимоий ҳаракати Навоий вилояти бўлими жорий архиви. 2013 йил.

2011-yil 11-12-aprel kuni Karmana tumanidagi 15-,17-sonli maktablarda viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga asosan, “Yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, yoshlarning giyohvandlik, tamaki, spirtli ichimliklarni iste’mol qilishga qarshi kurash” kabi salbiy oqibatlarini oldini olish borasida davra suhbatlari o’tkazildi. Shuningdek, 2011- yil 8-13 -aprel kunlari Qiziltepa tumanidagi 8,10,16,24-sonli maktablarda 11,13-aprel kunlari Navoiy shahridagi NDKI faollar zalida 11,12,13-14-aprel kunlari Navoiy shahridagi “Shirin” madaniyat saroyida 14-aprel kuni Navoiy shahridagi 11-sonli maktabda “Yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, yoshlarning giyohvandlik, tamaki, spirtli ichimliklarni iste’mol qilishga qarshi kurash” kabi salbiy oqibatlarini oldini olish borasida davra suhbatlari o’tkazildi.

Yoshlarning Vatanimiz tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi to’g’risidagi bilimlarini oshirish milliy va ma’naviy qarashlar ruhida tarbiyalash borasida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Navoiy viloyat bo’limi tomonidan har yili ulug’ mutafakkir shoir, davlat va jamoat arbobi Hazrat Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur kabi tarixiy shaxslarning tavallud sanalari ta’lim muassasalarida maktab va darsdan bo’sh vaqtlarda keng nishonlar, o’quvchilar o’rtasida turli tanlovlar va tadbirlar tashkil etish an’anaga aylangan. Biroq shunga qaramay “Kamolot” YoIhning maktab o’quvchilari bilan olib borayotgan turli tadbirlari va faoliyati davomida bir qatori kamchiliklar ham mavjud edi. Xususan, Zarafshon shahri, Uchquduq, Tomdi, tumanlari viloyat markazidan 220-300 km masofa uzoqlikda joylashganligi sababli o’tkaziladigan tanlovlarning viloyat bosqichilarida o’quvchilarining ishtirokini ta’minlashda muammolar yuzaga kelar edi. “Kamolot” YoIhning Qiziltepa tuman Kengashi Qiziltepa Markaziy poliklinika filiali binosida kichkina xonalarda joylashgan, Konimex tuman Kengashining alohida binosi mavjud emas, Konimex tuman hududi katta bo’lgani hamda aholi punktlari tarqoq joylashganligi sababli yoshlar bilan to’g’ridan to’g’ri ishlashda muammolarni keltirib chiqarar edi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati mustaqillik yillaridan buyon doimiy ravishda takomillashib, zamon talablari asosida yangilanib bormoqda. Ayniqsa, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim o’rin tutdi. Tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki, ushbu harakat tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar, loyihalar va dasturlar yoshlarni huquqiy, ma’naviy, sport, ijodiy va sog’lom turmush tarzi tamoyillarida tarbiyalashda samarali bo’ldi. Biroq, faoliyat davomida ba’zi hududiy, tashkiliy va moddiy-texnik muammolar mavjud bo’lib, barcha yoshlar qatlamini to’liq qamrab olishda cheklovlar bo’lgan. Shu sababli, 2017 yildan boshlab “Kamolot” o’rnida tashkil etilgan O’zbekiston Yoshlar Ittifoqi va keyinchalik Yoshlar ishlari agentligi yoshlar siyosatini yanada kengroq ko’lamda olib borishni boshladi. Bu esa respublika yoshlarining ijtimoiy faolligi va huquqiy madaniyatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Educational Research in Universal Sciences. Vol. 2 No. 2 SPECIAL. 2023. P.24-27.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 2-сон, 80-модда.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни. Халқ сўзи. 2016 йил 15 сентябрь. – Б. 1.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида Ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонунига изоҳлар. Халқ сўзи. 1991 йил 19 ноябрь. – Б. 3.
5. О'МА. М-168 фонд, 1-ro'ухат, 10-yig'ma jild, 2-varaq.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси ёшларининг “Камолот” жамғармаси тўғрисида”ги Фармони. Халқ сўзи. 1996 йил, 18 апрель. – Б. 1.
7. Рахимов Ш. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг амалга оширилиши (1991-2018 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2020. – Б. 75-93.
8. Рахмонов Х. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий институтлар фаолияти тарихи (Навоий вилояти мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Бухоро. 2022. – Б. 21.
9. Норов Ш. История государственной молодежной политики Узбекистана за годы независимости. (на примере Навоийской области). – Навоий. 2023. – С. 58.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.